

## **OLAM YARATILISHI HAQIDA FALSAFIY NAZARIYA**

**Yusupova Muxlisa Nurali qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

[\*maxfiratqurbonova473@gmail.com\*](mailto:maxfiratqurbonova473@gmail.com)

**Mamadiyeva Farida Abdujamil qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

[\*mamadiyevafarida5@gmail.com\*](mailto:mamadiyevafarida5@gmail.com)

**Safarova Munisa Eshmirza qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

[\*nnaa96480@gmail.com\*](mailto:nnaa96480@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolani olam yaratilishi haqidagi fikrlarga falsafiy jihatdan yondashib, biz ham olamni bilish bo'yicha mavjud hayotiy va ilmiy muammolar haqida o'zimizning xulosalarimizni, ularning yechimiga oid o'z qarashlarimiz va takliflarimizni baholi qudrat jamlab, ularni omma ixtiyoriga oshkora taqdim etishni maqsad qilganmiz. Sizing ixtiyoringizga taqdim qilingan ushbu maqola aynan shu maqsadni ko'zda tutgan holda yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Olam, falsafa, Diogen, Geraklet, ontologiya, milodiy II-III asrlar, moddiy olam, Pifagor, diniy tushuncha.

**Аннотация:** Подходя в данной статье философски к размышлениям о сотворении Вселенной, мы также представляем наши выводы о существующих жизненных и научных проблемах познания Вселенной, наши взгляды и предложения относительно их решения и представляем их общественности. Мы стремимся достичь. Эта статья написана именно с этой целью.

**Ключевые слова:** Вселенная, философия, Диоген, Гераклит, онтология, II-III вв. н.э., материальный мир, Пифагор, религиозная концепция.

**Abstract:** In this article, taking a philosophical approach to thinking about the creation of the Universe, we also present our conclusions about the existing vital and scientific problems of understanding the Universe, our views and proposals regarding their solution, and present them to the public. we strive to achieve. This article was written precisely for this purpose.

**Key words:** Universe, philosophy, Diogenes, Heraclitus, ontology, II-III centuries. AD, material world, Pythagoras, religious concept.

Biz Olam degan soʻzning maʼnosini tushuntira oladigan lugʻatni uchratmadik. Ammo, uning qoʻllanish sohalariga qarab baho berish mumkinki, u “hamma narsa”, “juda koʻp ”, “hadsiz - chegarasiz” kabi tushunchalarga yaqin maʼnoni bildirishini, qandaydir umumiylikni taʼkidlab turganini sezish mumkin. Zamonaviy taʼlim otlarda. sifatiga, soniga, qamrov darajasiga(koʻlamiga), mazmun mohiyatiga qarab Olam tushunchasi juda koʻp turlarga, koʻrinishlarga. shakllarga ajratilgan holda oʻrganiladi. Shuningdek, Olam tushunchasining “dunyo”, “tabiat”, “jahon ”, “ummon” kabi bir qancha maʼnodosh(sinonim) “adashlari” borki, ularni qoʻllaganda ham qaysidir maʼnoda Olamni nazarda tutiladi. Bunday misollarni quyida ham uchratsa boʻladi. Olamni tushunish, tanish va unda roʻy beradigan jarayonlarni anglash insoniyat paydo boʻlgandan beri uning oldidagi eng dolzarb, eng muhim vazifa boʻlib kelgan. Bu sohada hozirgacha toʻplangan bilimlar juda koʻp. Ularni oʻrganish bilan falsafaning ontologiya boʻlimi shugʻullanadi. Ular ichida bir-birini inkor etuvchi, ziddiyatlarga boy qarashlar(bilimlar nazariyalar) ham talaygina. Bundan “Olam ” tushunchasi ham istisno emas[1].

**Falsafa**, falsafiyat — insonning dunyoda tutgan oʻrni va dunyoqarashining yaxlit tizimini ifodalovchi maʼnaviy faoliyatining bir shakli. Milodiy II-III-asrlarda oʻtgan yunon faylasufi Diogen Laertskiyning shohidlik berishicha, yunon mutafakkiri Pifagor birinchi boʻlib oʻzini „filosof“ deb atagan. Bu soʻz Geraklitning falsafiy taʼlimotida narsalarning tabiatini tadqiq etishga nisbatan qoʻllanilgan, tadqiqotchining oʻzi esa

„filosof“ deb atalgan. Keyinchalik „filosof“ soʻzi har taraflama, keng, tushunarli va haqqoniy fikr yuritishga intiluvchi kishiga nisbatan qoʻllanilgan. Tarixiy maʼlumotlar yunoncha „philosophia“ soʻzi arabchaga „falsafa“ boʻlib oʻtganligi, arablar bu fanni „hikma“ deb atashi, ruschaga „filosofiya“ tarzida oʻtganligini tasdiqlaydi, demak falsafa bilan filosofiya soʻzlari bir xil maʼnoga ega. Inson dunyoga kelibdiki, bizni oʻrab turgan olam qanday paydo boʻlgan degan savolni oʻz oʻziga berishi tabiiy hol. Qadimda fan hali rivojlanmagan paytda ilmiylikka asoslanmagan tushuntirishlar boʻlgan, ammo fanning rivojlanishiga tayanib, kuzatuvlarga asoslanib uning kelib chiqishini tushuntirishga harakat qilinib kelingan. Hozirgi paytda olimlar fanda erishilgan keng qamrovli bilimlarga asoslanib, olamning paydo boʻlishi toʻgʻrisida maʼlum bir tasavvurlarga ega. Shu asosda biz olamning qanday paydo boʻlganini va uning rivojlanish evolutsiyasini bayon qilishimiz mumkin[2]. Azalda faqat Xudo bor edi, boshqa hech narsa yoʻq edi. Butun borliqni quyuk zulmat qoplagan edi. Xudo buni oʻzgartirishni istab yer bilan osmonni yaratdi. Yaratish yoʻqdan bor qilish demakdir. Bironta odam buning uddasidan chiqolmaydi! Shu sabab biz Xudoni Yaratuvchi deb ataymiz. Xudoning odamlarga bergan Kalomi boʻlgan Muqaddas Kitobda bu qanday sodir boʻlgani haqida hikoya qilinadi. Birinchi kunda Xudo “Yorugʻlik boʻlsin”, dedi va shunday boʻldi. Keyin U yorugʻlikni qorongʻulikdan ajratdi va uni kunduz deb, qorongʻulikni boʻlsa tun deb atadi. Tun bilan kun bir-biri bilan oʻrin almashadi va bu hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Ikkinchi kunda Xudo suvning ustida gumbaz (biz buni atmosfera deb ataymiz) yaratdi va uni osmon deb atadi. Xudo suvning bir qismini gumbaz ostiga, qolgan qismini esa gumbaz ustiga yigʻdi. Soʻngra Xudo gumbazlar orasidagi boʻshliqni bizlar nafas oladigan havo bilan toʻldirdi. Uchinchi kuni Xudoning Kalomi bilan suvning ostida quruqlik paydo boʻldi; suv Xudo yaratgan chuqurliklarga yigʻilib qoldi. “Shunday qilib, Xudo quruqlikni yer, suvlarni esa dengizlar deb atadi”. Biroq Xudo yerning boʻm-boʻsh va koʻrimsiz ekanini koʻrdi. Shuning uchun dedi: “Yer oʻt-oʻlanlar, butalar va daraxtlar oʻstirsin”. Shu ondayoq turli-tuman oʻsimliklar paydo boʻldi. Dunyo rang-barang va goʻzal tus oldi! Oʻsimliklar

urug'lab, ulardan yana yangi o'simliklar unib chiqdi. Daraxt mevalarida ham urug'lar bo'lib, ulardan ham yangi daraxtlar o'sa boshladi. To'rtinchi kunda, Xudoning amri bilan quyosh, oy va yulduzlar paydo bo'ldi. Yaratuvchimiz quyoshni har tongda chiqib, har kechda botadigan qilib qo'ydi. Tunda uyquga yotganimizda qorong'u bo'ladi. Biroq Xudoning buyrug'i bilan oy va yulduzlar tungi osmonda nur sohib zulmatni yoritib turadi. Osmonda yulduzlar shunchalik ko'pki, biz hatto ularning son-sanog'iga ham yetolmaymiz. Quyosh va oy tufayli kunlar, oylar va yillarni belgilash imkoni tug'ildi. Xudo vaqtni O'zi istaganidek tartibga sola oldi. Beshinchi kunda Xudo jonzotlarni yaratishga kirishdi. U shunday dedi: "Suv har xil tirik jonivorlar bilay qaynasin!" Shunday ham bo'ldi. Xudo suv tubida erkin suza oladigan ulkan kitlarni, yashinday chaqqon katta-kichik baliqlarni yaratdi. Barcha dengiz jonivori, hatto ko'z ilg'amaydiganlarini ham Xudo yaratdi. Xudo shunchalar ko'p va turli-tuman jonivornlarni yaratdiki, ularni sanog'iga yetish qiyin. Osmon ham Xudo yaratgan rang-barang qushlar va ularning ovozlari bilan to'ldi. Ular moviy osmonda, ko'm-ko'k maysalar uzra qanot qoqar, daraxtlarga va yerga qo'nib orom olar, hamda oziqlanar edilar. Xudo barcha yaratgan jonivorlarini muborak qilib, "Yer yuzida ko'payib barakali bo'linglar", - dedi. U hamma baliqlar, hayvonlar va qushlar avlod qoldirishini istar edi. Yer yuzida, havoda va suvda hayot qaynay boshladi. Beshinchi kun mana shu tariqa yakuniga yetdi. Mana oltinchi kun ham keldi. Xudo yer yuzida chorva mollari, qurt-qumursqalar, dala hayvonlari kabi yanada ko'proq jonivornlarni paydo qildi. Sigirlar, otlar, cho'chqalar, sherlar va yo'lbarslar, maymunlar va boshqa ko'plab jonivorlar quyosh ostida o'zlariga makon topdilar. Shuningdek ilonlar va boshqa sudralib yuruvchilar ham paydo bo'ldi. Yaratilgan jonivornlarning birontasi ham bir-biriga o'xshamas edi. Shunday qilib, Xudo O'z ishini deyarli yakunlagan edi. Yer va osmon, quyosh va yulduzlar, o'simliklar va daraxtlar, baliqlar va qushlar, yerda va suvda yashovchi hayvonlar yaratilib bo'lingan edi. Yer yuzi qanday yashnab ketdi-ya! Ammo Xudoning nazarida nimadir yetishmayotganday edi. Olam so'zining qo'llanishi bo'yicha manbaalarga murojaat qilamiz. Ularda Olam tushunchasiga berilgan ko'plab ta'riflarni

uchratish mumkin: - Olam insonlarni o'rab turgan dunyo haqida keng qamrovli tushuncha; - U nisbiy mohiyatga ega. Shuning uchun ham uning shakli xilma-xil; - Faqat moddiy jismlarni qamrab oluvchi Olam - Moddiy Olam deyiladi; - Odamning ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olam - ma'naviy Olam deyiladi; - Shuningdek, Olamning dolzarb, potentsial, virtual, konkret, abstrakt turlari va boshqa o'nlab turli-tuman nomdagi Olamlar sanab o'tiladi; - Shu dunyo o'zining barcha murakkabligi va muammolari, jozibadorligi, butun go'zalligi bilan yagona Olamni tashkil etadi; - Olam tushunchasi makonni aks ettiradi; - Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan birgalikda namovon bo'lad i; Hech narsasi yo'q olam yo'q. Yo'q degan so'z mavhum tushincha(abstrakt)

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki olam yaratilishi haqida qadimdan diniy va dunyoviy bilimlar asosida turli fikr va nazariyalar mavjud bo'lgan, ammo ularning hech biri o'z tasdig'ini topmagan. Qadimda asosan yunon olimlari ko'proq olam yaratilishi haqida turli nazariyalarni ishlab chiqqan. Bu nazariyalar bir birini to'ldirmagan aksincha bir bir qarama qarshi tarzda yoritilgan. Olimlar hozirgi zamonaviy hayotda ham olam yaratilishi haqida ko'plab izlanishlar olib borishmoqda. Ammo ular hanuzgacha bir tuhtamga kelishmagan. Olam shunday mazmundagi tushunchaki u cheksiz va chegarasiz tushuncha bo'lib insonlarning aql zakovati yetmaydigan darajada mukammal.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.A. Razzoqov "Olam haqida xususiy falsafa" Namangan nashriyoti. 2019. 6-bet.
2. Boboyeva F. "Olamning yaratilishi haqida tasavvurlar" 18-bet.
3. CHoriyev N. K. "Buyuk ilmiy inqiloblar tarixi" O'quv qo'llanma. 2012yil